




Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi
(2020- yil yanvar-dekabr)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 10 950,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 115,8 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (83,9 %) ni tashkil etdi.



B– Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 7,6 % ga hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 2,0 martaga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 13,4 % ga, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining -17,5 % ga pasayishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 54,4 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

(yil boshidan I-XII -oylar, % da)




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Shagʻal , ming t.	11,0	0,0	-11,0




Ishlab chiqaradigan sanoat







2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9189,3 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,9 % ini tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 2,6 % ni (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida - 3,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 6,9 % (6,0 %), o'rta-quyi texnologiyali - 12,4 % (10,7 %) va quyi texnologiyalisi - 78,1 % (79,9 %) ni tashkil etdi.

Yuqori texnologiyali

O'rta-yuqori texnologiyali

O'rta-quyi texnologiyali

Quyi texnologiyali


Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 37,3 % (2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 24,2 % (2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,8 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 3,0 % (2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 121,9 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,1 % (2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 121,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,3 % (2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,3 %) ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati, % da

2020- yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 17,0 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 22,3 % ga o‘sgan), 128,9 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (14,9 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘shish sur‘atlari kuzatildi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming tonna	37,0	48,3	11,3
Aroq – ming litr 100 % spirt	456,0	318,0	-138,0
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	29,2	15,1	-14,1
Vino, ming litr	1 308,0	886,3	-421,7
Un, ming tonna	112,2	128,9	16,7
O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming tonna	13,9	17,0	3,1



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 616,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (14,8 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,0 martaga oshganligi kuzatildi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

(yil boshidan I-XII -oylar, % da)






Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	439,8	5 304,1	4 864,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	85,6	86,4	0,8



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 91,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
(yil boshidan I-XII -oylar, % da)
2019-yil % da

2020- yil % da



Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	35,6	46,6	11,0
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	4,1	5,2	0,9
Shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	18,9	22,0	1,1
To'qimachilik chiqindilari, tonna	2,0	10,0	8,0
Xavfsiz metall chiqindilari, ming.t	2,3	0,0	-2,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 30,9 % ga, oqava suvlarni shlami 26,8 % ga hamda shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli

havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 16,4 % ga oshganligi kuzatildi.


Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6 192,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 9,1 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 56,5 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,6 % (2019- yil yanvar-dekabr oylarida 1,1 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 42,6 % ni, shuningdek, Namangan tumani 11,4 % ni, Mingbuloq tumani 6,4 % ni, Uchqo'rg'on tumani 6,0 % ni, Chust tumani 6,0 % ni hamda To'raqo'rg'on tumani 5,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (109,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Chust (140,7 %), Pop (119,9 %), Norin (119,0 %), Chortoq (117,8 %), Uchqo'rg'on (112,4 %) tumanlarida qayd etildi.



Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
Namangan sh.	2 641,3	42,6	105,6	To'raqo'rg'on	328,4	5,3	108,3
Mingbuloq	394,4	6,4	100,9	Uychi	317,7	5,1	102,3
Kosonsoy	321,6	5,2	108,2	Uchqo'rg'on	370,6	6,0	112,4
Namangan	707,4	11,4	109,6	Chortoq	166,4	2,7	117,8
Norin	102,3	1,7	119,0	Chust	370,7	6,0	140,7
Pop	295,2	4,8	119,9	Yangiqo'rg'on	176,1	2,8	109,5

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 38,9 % ni, shuningdek, Namangan tumani 13,2 % ni, Mingbuloq tumani 9,4 % ni hamda Kosonsoy tumani 6,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, noziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Chust (140,3 %), Norin (128,6 %), To'raqo'rg'on (125,6 %) hamda Uchqo'rg'on (123,0 %) tumanlarida qayd etildi.



Hududlar bo'yicha noziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1 512,8	38,9	100,4		265,0	6,8	125,6
Namangan sh.				To'raqo'rg'on			
	366,5	9,4	99,5		216,2	5,5	85,8
Mingbuloq				Uychi			
	264,0	6,8	104,2		133,6	3,4	123,0
Kosonsoy				Uchqo'rg'on			
	512,4	13,2	108,0		77,8	2,0	109,8
Namangan				Chortoq			
	54,9	1,4	128,6		290,0	7,4	140,3
Norin				Chust			
	110,1	2,8	122,7		93,5	2,4	102,7
Pop				Yangiqo'rg'on			

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 49,1 % ni, shuningdek, Uchqo'rg'on tumani 10,3 % ni, Namangan tumani esa 8,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Chust tumani (142,2 %), Uychi tumani (136,3 %) hamda Kosonsoy tumanida (131,1 %) qayd etildi.



Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1 128,5	49,1	113,5		63,4	2,8	68,7
Namangan sh.				To'raqo'rg'on			
	27,9	1,2	123,6		101,5	4,4	136,3
Mingbuloq				Uychi			
	57,6	2,5	131,1		237,0	10,3	107,2
Kosonsoy				Uchqo'rg'on			
	195,0	8,5	114,1		88,6	3,9	125,9
Namangan				Chortoq			
	47,4	2,1	109,5		80,7	3,5	142,2
Norin				Chust			
	185,1	8,1	118,2		82,6	3,6	118,3
Pop				Yangiqo'rg'on			



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2 815,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 25,7 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida

	Mlrd. soʻm			Ulushi % da			Oʻsishi % da			
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da	
	10 950,8			100,0			115,8			
	Viloyat									
	4 191,6	38,2	102,9		1 562,6	14,3	106,2			
	Namangan sh				Toʻraqoʻrgʻon					
	505,0	4,6	106,0		726,3	6,6	100,5			
	Mingbuloq				Uychi					
	341,2	3,1	102,6		839,8	7,7	116,6			
	Kosonsoy				Uchqoʻrgʻon					
	938,3	8,6	104,8		181,3	1,7	108,8			
	Namangan				Chortoq					
	350,3	3,2	112,9		595,2	5,4	119,6			
	Norin				Chust					
	526,2	4,8	108,6		193,0	1,8	116,8			
	Pop				Yangiqoʻrgʻon					




**Hududlar kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida Chust (2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 119,6 %), Yangiqo'rg'on (116,8 %), Uchqo'rg'on (116,6 %), Norin (112,9 %) hamda Chortoq (108,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

**Sanoat ishlab chiqarish
fizik hajmi indeksi, % da**


**Iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishda o'sish
sur'ati, % da**



**Viloyat jami sanoat
mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 38,2 % i) hamda To'raqo'rg'on (14,3 %), Namangan (8,6 %), Uchqo'rg'on (7,7 %), va Uychi (6,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Chortoq (1,7 %) hamda Yangiqo'rg'on (1,8 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (6 861,6 ming so'm), Namangan shahrida (6 620,7 ming so'm), Namangan tumani (5 196,7 ming so'm), Uchqo'rg'on (4 851,4 ming so'm) va Mingbuloq tumani (3 974,9 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3 857,1 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Bu borada eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on (879,2 ming so'm), Chortoq (904,8 ming so'm), Kosonsoy (1 619,7 ming so'm) va Norin (2 127,0 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.



Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, ming so'm



	Sanoat mahsulotlari		Iste'mol mahsulotlari		
	3 857,1		2 181,0		
Viloyat					
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	6 620,7	4 171,8		6 861,6	1 442,2
	Namangan sh			To'raqo'rg'on	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3 974,9	3 104,6		3 385,4	1 480,6
	Mingbuloq			Uychi	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1 619,7	1 526,9		4 851,4	2 140,9
	Kosonsoy			Uchqo'rg'on	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	5 196,7	3 917,8		904,8	830,4
	Namangan			Chortoq	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 127,0	621,3		2 229,0	1 388,3
	Norin			Chust	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 383,1	1 336,8		879,2	802,3
	Pop			Yangiqo'rg'on	



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 471,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 50,0 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiyo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (98,3 %) tumanlari va Namangan shahrida (61,4 %) kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, eng kichkina ulush To'raqo'rg'on (18,8 %), Uchqo'rg'on (18,9 %), Mingbuloq (19,9 %) va Norin (28,5 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6 577 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2 595 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 39,5 % i) Namangan shahriga, 522 tasi (7,9 %) Uychi tumaniga, 495 tasi (7,5 %) Chust tumaniga, 476 tasi (7,2 %) Namangan tumaniga, 476 tasi (7,2 %) Kosonsoy tumaniga, 428 tasi (6,5 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2020- yilning yanvar-dekabr oyida viloyatda 1 524 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 412 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 27,0 %) Namangan shahrida, 161 tasi (10,6 %) Uychi tumanida, 135 tasi (8,9 %) Kosonsoy tumanida, 126 tasi

(8,3 %) Namangan tumanida, 124 tasi (8,1 %) To'raqo'rg'on tumanida hamda 119 tasi (7,8 %) Chust tumanida tashkil etildi.




Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari
2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Namangan shahar (2 595 ta), Uychi (522 ta), Chust (495 ta), Namangan (476 ta), Kosonsoy (476 ta), To'raqo'rg'on (427 ta) tumanlari qayd etildi.

Viloyat miqyosida eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 6 taligi (2021- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Viloyat miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 6 taligi (2021- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2021-yilning 1 yanvar holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Mingbuloq (178 ta), Pop (257 ta), Chortoq (269 ta), Uchqo'rg'on (288 ta), Norin (291 ta) hamda Yangiqo'rg'on (302 ta) tumanlari qayd etildi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 53 ta loyiha bo'yicha 315,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 2 059,0 ming. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2020-yil yanvar-dekabr oylarida 520 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 6,7 martaga oshdi. Shu bilan birga, 2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmining 2,6 martaga ortganligi kuzatildi.



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar
ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining
asosiy ko'rsatkichlari**

	2019-yil yanvar- dekabr	2020-yil yanvar- dekabr
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	20	53
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	10	34
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i>	209,2	315,0
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>ming. AQSh dollar</i>	800,0	2 059,0
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, <i>birlik</i>	78	520

Sanoat statistikasi
bo'limi
Tel.: (69) 227-84-80